UO‘K 328(32)

MUDOFAA VA XAVFSIZLIK SOHASIDA PARLAMENT NAZORATINING SHAKLLANISH TARIXI (Turkiya Respublikasi misolida)

T.P. Karimov

Maqolada mudofaa va xavfsizlik sohasida parlament nazoratining shakllanish tarixi Turkiya Respublikasi misolida yoritilgan. Jamiyatdagi fuqarolik-harbiy munosabatlar hamda davlat tomonidan armiyani nazorat qilishning fuqarolik va demokratik mexanizmlarini o‘rnatish masalalari tahlil etilgan. Armiyaning mamlakatda sodir bo‘layotgan siyosiy jarayonlarga faol aralashuvi, uning sabab va oqibatlari, armiya ustidan demokratik fuqarolik nazoratini ta’minlaydigan huquqiy va konstitutsiyaviy mexanizmlar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *fuqarolik jamiyati, konstitutsiya, ijtimoiy munosabatlar, tarixiy xususiyat, qurolli kuchlar, xavfsizlik, davlat to‘ntarishi, parlament, nazorat.*

В статье история становления парламентского контроля в сфере обороны и безопасности освещена на примере Турецкой Республики. Анализируются гражданско-военные отношения в обществе и вопросы создания гражданских и демократических механизмов военного контроля со стороны государства. Изучены активное вмешательство армии в политические процессы, происходящие в стране, его причины и последствия, правовые и конституционные механизмы, обеспечивающие демократический гражданский контроль над армией.

Ключевые слова: *гражданское общество, конституция, общественные отношения, исторический характер, вооруженные силы, безопасность, государственный переворот, парламент, контроль.*

Qurolli kuchlarning jamiyat hayotidagi siyosiy va ijtimoiy ta’sir darajasi yuqoriligi va buning natijasida yuzaga kelgan nomutanosibliklar Turkiya tarixidagi eng muhim va murakkab masalalardan biri sanaladi. Shuning uchun Turkiya parlamenti kun tartibida fuqarolik-harbiy munosabatlar hamda bir qator xavfsizlik institutlarini nazorat qilishning fuqarolik va demokratik mexanizmlarini o‘rnatish masalalari doim dolzarb o‘rin tutgan.

Armiyaning mamlakat ichida sodir bo‘layotgan siyosiy jarayonlarga faol aralashuvi 1923-yilda tashkil etilgan zamonaviy Turkiya davlati tarixining xususiyatlaridan biri bo‘lib kelgan. Turk Qurolli Kuchlari (TQK) Turkiyani har qanday quruqlik, dengiz va havo hujumlaridan himoya qilish vazifasi yuklatilgan qurolli kuchlardir. Turkiya Respublikasi Konstitutsiyasidan kelib chiqib, Turk Qurolli Kuchlari Bosh Qo‘mondoni lavozimi Turkiya Buyuk Millat Majlisi nomidan Prezidentga berilgan [1. B. 34]. Prezident bosh shtab boshlig‘ini tayinlaydi; Milliy xavfsizlik Kengashi ustidan nazoratni amalga oshiradi; mamlakatda harbiy yoki favqulodda holatlarni e’lon qiladi [1. B. 34]. TQK harbiy boshqaruv organi Bosh shtabdan hamda Turkiya quruqlik qo‘shinlari, turk dengiz floti, Turkiya harbiy havo kuchlari, turk jandarmeriyasi va Qirg‘oqni qo‘riqlash xizmatidan iborat. TQK 2023-yil uchun dunyo armiyalari reytingida 11-o‘rinni [2] egallab, NATOga a’zo davlatlarning 5-eng kuchli armiyasi hisoblanadi [3]. 2022-yilda esa Turk Qurolli Kuchlarining jangovar shaxsiy tarkibi 355200 kishini tashkil etgan. Rezervdagilar soni 378700 kishini tashkil etadi [4]. Qurolli kuchlarning oliy boshqaruv organi Qurolli Kuchlar Bosh shtabi bo‘lib, Bosh shtab boshlig‘iga qurolli kuchlar turlarining bosh qo‘mondonlari: quruqlikdagi qo‘shinlar, harbiy havo kuchlari, dengiz floti, jandarmeriya va qirg‘oq qo‘riqlash xizmati qo‘mondonlari bo‘ysunadi. Turkiya Respublikasining harbiy xarajatlari, “take-profit” tahliliy portali ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda yalpi ichki mahsulot 819 mil-

liard AQSh dollariga teng bo‘lgani holda 15,4 milliard AQSh dollarini tashkil etdi – bu qariyb 1,9 foizni tashkil etadi [5].

Turkiya qurolli kuchlari mamlakatda uch marta – 1960-, 1971– va 1980-yillarda davlat to‘ntarishlari uyushtirgan. Harbiylar tarixan o‘zlarini Mustafo Kamol Otaturk o‘gitlari asosida tuzilgan turk davlatchiligining kafolati deb hisoblaydilar [6].

Ilk marta harbiy to‘ntarish 1960-yil 27-mayda Turkiya qurolli kuchlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu Turkiya Buyuk Millat Majlisi (TBMM) tarixidagi birinchi to‘ntarish edi. To‘ntarish natijasida Prezident Jalol Bayar, Bosh vazir Adnan Menderes, Demokratik partiyaning vazirlari va deputatlari hibsga olinadi va TBMM yopiladi. Mamlakatga rahbarlikni harbiylardan tashkil topgan Milliy birlik qo‘mitasi qo‘lga oladi. Turkiya yangi tarixida harbiylar tomonidan yana 1971-yil va 1980-yilda ham davlat to‘ntarishlari amalga oshiriladi. Shuningdek, harbiylarning davlat boshqaruviga 1997-yildagi harbiy memorandum yordamida aralashuvi ham bosh vazir va hukumat iste’fosiga olib kelgan [7].

Turkiya yangi tarixidagi oxirgi harbiy to‘ntarishga urinish – turk harbiy putchi 2016-yilda sodir etildi. Turkiyada 2016-yilning 15-iyul oqshomidan 16-iyul ertalabgacha Turkiya armiyasi Anqara, Istanbul, Konya, Marmaris, Malatya va Karsdagi bir qator strategik ahamiyatga ega obyektlarni nazoratga olib, mamlakatda harbiy to‘ntarishni amalga oshirishga urindi. 2016-yilning 13-iyulida, davlat to‘ntarishiga urinishdan ikki kun avval, Turkiya prezidenti ichki xavfsizlik amaliyotlarida ishtirok etgan turk harbiylarining jinoiy javobgarlikka tortilmasligi to‘g‘risidagi qonun loyihasini imzoladi. Qo‘mondonlarga nisbatan jinoyat ishini qo‘zg‘atishni bosh vazir, kichik harbiy xizmatchilarga nisbatan esa hokimlar imzolashi mumkin. Immunitet to‘g‘risidagi qonun loyihasi mamlakat hududlaridagi harbiy amaliyotlarda tobora ko‘proq ishtirok etayotgan qurolli kuchlar va hukumat o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga urinish edi. Lekin mazkur qonun turk harbiylariga davlat to‘ntarishini amalga oshirish uchun imkon bo‘lib xizmat qilgan va shu tariqa teskari natija bergan bo‘lishi mumkin [8]. Bu urinish muvaffaqiyatsizlikka uchradi – Turkiyaning qonuniy prezidenti va hukumati hokimiyatni saqlab qola oldi [9]. Harbiylarning davlat to‘ntarishiga urinishi natijasida Turkiya iqtisodiyotiga yetkazilgan zarar 100 mlrd. dollar miqdorida baholandi [10]. Turkiyada 2016-yilda e’lon qilingan favqulodda holat 2018-yil 18-iyulgacha davom etdi.

Turkiyadagi harbiylarning davlat to‘ntarishini amalga oshirishga urinishida ko‘ppartiyaviylik tizimiga asoslangan parlamentda qurolli kuchlar tizimi ustidan yetarlicha parlament nazorati o‘rnatilmaganligi asosiy omillardan biri sifatida ko‘rsatildi [11]. Qurolli kuchlarning jamiyat hayotidagi har qanday o‘rni va roli davlat tuzilmasining barqaror amal qilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan siyosatning muhim sohasidir. Turkiya kabi mamlakat ichida va tashqarisida xavfsizlikka oid muammolari bilan o‘ralgan va 30 yildan ortiq vaqtdan beri bu muammolar bilan shug‘ullanib kelayotgan davlat uchun bu soha muhim o‘rin tutadi. Shu bois, QKning tuzilishi va qayta tuzilishi kabi murakkab masalalarda armiya nimadan iborat, mamlakat mudofaa arxitekturasi va amaliyotini bugungi kunga qanday noaniqliklar olib keldi, bu muammolar ortida nima turibdi, degan savollarga oydinlik kiritish zarur. Hukumat armiyada amalga oshiradigan tuzilmaviy o‘zgarishlardan mavjud ehtiyojlar va milliy maqsadlar uchun mustahkam asos, shubhasiz, etnik, diniy va mafkuraviy tafovutlardan qat’i nazar, tizim ichidagi demokratik va xolis nazoratning amal qilishini taqozo etadi. Shu o‘rinda Turkiya konstitutsiyasining 117-moddasidagi “Hukumat parlament oldida mamlakat mudofaasi uchun ham mas’ul” ekanligidan kelib chiqib, armiyani nazorat qilish mexanizmlarida parlamentning ta’sirini kuchaytirish choralarini ko‘rish kerak [1. B. 5].

Turkiya siyosatida armiyaning o‘rni muhokamasiga bag‘ishlangan konferensiyada Turkiyadagi armiya-siyosat munosabatlari mamlakatning demokratik taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi bosh omil sifatida qaraladi [12. B. 38].

Armiya ustidan demokratik fuqarolik nazoratini ta’minlaydigan huquqiy va konstitutsiyaviy mexanizmlarsiz muammoni hal qilib bo‘lmaydi. Buning uchun uchta asosiy mavzuni o‘rganish kerak.

– harbiy kuchni qanday qurish kerak, ya’ni kuch tuzilishi;

– qo‘shinlarni boshqarish tuzilmasi, qo‘mondonlik va nazorat, kim kimga hisobot beradi va javobgar bo‘ladi;

– siyosiy va harbiy qarorlarni qabul qilish jarayonining texnik ifodasi bilan operativ rejalashtirish arxitekturasini tashkil qilish kerak.

Hokimiyat tuzilmasi ham, qo‘mondonlik tuzilmasi ham, qaror qabul qilish jarayonlarining har bir bosqichi ham obyektiv, demokratik, fuqarolik rahbariyatiga va nazoratga ochiq bo‘lishi kerak.

Turkiyada tarixan armiyaning roli siyosiy boshqaruvda hal qiluvchi vakolatlarga ega bo‘lishining sabablarini turk siyosatshunoslari turlicha ifodalaydilar. Chunonchi, siyosatshunos olim, akademik Ali Bayramo‘g‘lining fikricha, Harbiy vasiylik an’anasiga nisbatan u tez-tez ishlatadigan ikkita tushuncha bor. Ulardan birinchisi “avtonomiya” tushunchasidir. Turk Qurolli Kuchlari siyosiy tizim ichida, aniqrog‘i, davlat tizimi ichida avtonom mavqega ega. Birinchi subavtonomiya – bu fiskal avtonomiya – Turk Qurolli Kuchlari siyosiy hokimiyat, qonun chiqaruvchi va nazorat mexanizmlaridan xoli ravishda o‘z byudjetini, xarajatlari smetasini o‘zi tayyorlaydi. Ikkinchisi – ma’muriy avtonomiya, ya’ni QK strukturasi va QK boshqaruv mexanizmlari jamoat nazorati uchun butunlay yopiq tarzda joylashtirilgan. Uchinchisi – siyosiy avtonomiya. Bunda harbiy-fuqaro munosabatlari o‘rtasidagi vakolat-mas’uliyat mexanizmining qog‘ozda qolishi, garchi Bosh shtab boshlig‘i Bosh vazir oldida mas’ul bo‘lsa-da, bu mas’uliyatning siyosiy kuchlar balansida mustaqil mavqega ega bo‘lganligidadir.

Bu avtonomiya tushunchasi aslida asosiy funksiyaga ishora qiladi: ya’ni Turk Qurolli Kuchlari o‘zini-o‘zi nazorat qiluvchi kuch sifatida amal qiladi. Xarajatlar, harbiy harakatlar yoki ma’muriy tartib-qoidalar bo‘yicha tashqi nazorat yo‘q [12. B. 11]. Demak, Turkiyada armiya zamonaviy armiyalarning asosiy vazifasi bo‘lgan xorijiy harbiy xavfsizlik sohasi bilan bir qatorda siyosiy, iqtisodiy, madaniy va mafkuraviy sohalarni qamrab olgan keng faoliyat maydoniga ega va bu sohalardagi faoliyat qonuniy yoki fuqarolik siyosiy hokimiyati va davlat hokimiyati nazoratidan de-fakto mustaqildir. Harbiy sanoat va harbiy xarajatlar sohasida o‘rnatilgan klassik harbiy-sanoat kompleksi mexanizmidan tashqari, armiyaning o‘zi ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, savdo va moliya sohalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarga egadir.

Turkiya qurolli kuchlari markazlashgan tuzilmaga ega bo‘lib, undagi Bosh shtab boshlig‘i o‘zida katta vakolatlarni jamlaydi. G‘arb amaliyotida Bosh shtab dengiz kuchlari, quruqlik kuchlari va havo kuchlari o‘rtasida muvofiqlashtiruvchi vazifasini bajaradi. Harbiy bo‘linmalar fuqarolik jamiyati bilan bog‘langan va fuqarolik nazorati hokimiyatning harbiylar qo‘lida to‘planishiga yo‘l qo‘ymaydigan prinsipga asoslanadi. Bu tamoyil ikkinchi jahon urushidan keyin shakllangan huquqiy davlatlar qurolli kuchlariga xosdir. Turkiyada esa qurolli kuchlarni va ularning rahbariyatini fuqarolik jamiyati bilan bog‘lovchi tizim yo‘q. Dengiz, Havo va Quruqlik kuchlari, shu jumladan Jandarm qo‘mondonligi, ma’muriy harakatlar va harbiy harakatlar nuqtayi nazaridan, qo‘mondonlik va qo‘mondonlik doirasida Bosh shtabga bo‘ysunadi. Markazlashtirish avtonom tuzilmani mustahkamlab, uning uchun jamoatchilik nazorati imkoniyatlarini pasaytiradi.

Ushbu avtonom va o‘ta markazlashgan harbiy tuzilma qanday ishlashini yoki bu qanday mumkinligini ko‘rib chiqsak, oldimizda ikkita element yoki ikkita an’ana paydo bo‘ladi. Turk davlati an’analarida hokimiyat-mas’uliyat mexanizmi harbiy vasiylik tamoyillari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tartibga solingan. Bu mexanizm huquqiy davlatlarda vakolatga ega bo‘lgan shaxs ushbu vakolat uchun javobgar bo‘lishini anglatadi. Hokimiyat va mas’uliyat o‘rtasidagi uzilish nazoratsizlik va avtoritarizmni keltirib chiqaradi. Milliy Mudofaa vazirligi va Bosh shtab boshlig‘i o‘rtasidagi harbiy tuzilmaning shtatdagi avtonom o‘rni bilan bog‘liq munosabatlarida bu holat aniq ko‘rinadi. Milliy Mudofaa vazirligi harbiy byudjetni tayyorlashga mas’ul idora bo‘lsa-da, bu borada hech qanday vakolatga ega emas. Boshqa tomondan, barcha vakolatlar Bosh shtab boshlig‘iga tegishli va bu vakolatlar tufayli u hech qanday siyosiy javobgarlikka ega emas. Harbiy vakolatga ega bo‘lgan tuzilmaning erkin va javobgarlikdan ozod bo‘lishi bilan birga nazorat etilmasligi uning haddan tashqari siyosiylashuviga olib keladi hamda siyosiy maydonda harakat qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Demokratik jamiyatda armiya mamlakat va hukumat siyosati haqida ommaviy bayonotlar berish huquqiga ega bo‘lmasligi zarur. Mudofaa siyosati va armiya haqida qaror qabul qi-

ladigan armiyaning o‘zi bo‘lmasligi kerak. Misol sifatida Germaniyada tinchlik davrida armiya uchun asosiy qarorni mudofaa vaziri qabul qiladi. urush holatida esa armiya uchun qaror qabul qilish Germaniya kansleriga tegishlidir. Buning uchun armiyani bosqichma-bosqich fuqarolik nazoratiga olish, siyosatni fuqarolik sohasi sifatida ifodalash, siyosiy makonni harbiy ramzlardan tozalash, jamiyatning harbiy sohaga munosabatini o‘zgartirish taqozo etiladi.

Demokratik mamlakatlarda boshqaruv va nazorat qarorlar qabul qilish va harbiy rejalashtirishdagi siyosiy iroda ko‘rsatmalaridan boshlanadi. Qaror qabul qilish jarayonida Bosh vazir va Vazirlar Kengashiga to‘liq vakolat berilishi, Qurolli Kuchlarning tavsiya va takliflari jarayonga kiritilishi, Parlamentga audit va nazorat vakolatlari berilishi kerak. Strategik razvedka ma’lumotlarini baholash, xalqaro xavfsizlik muhitidagi o‘zgarishlar va majburiyatlarni bajarish uchun mudofaa va xavfsizlik maqsadlari hukumat dasturlariga kiritilishi kerak. Qurolli Kuchlar yillik va o‘rta muddatli strategik rejalashtirish ko‘rsatmalariga amal qilishi kerak. Parlament, hukumat va Qurolli Kuchlar o‘rtasida o‘zaro tushunishni ta’minlash uchun oraliq mexanizmlar o‘rnatilishi zarur. Masalan, Turkiya Buyuk Millat Majlisida tashkil etiladigan mudofaa, razvedka va jamoat xavfsizligi kabi ixtisoslashtirilgan komissiyalarga qonuniy ravishda majburiy vakolatlar berilishi shu jumladandir.

Turkiyada ilk parlament 1876-yilda tashkil etilgan bo‘lsa-da, u Turkiya Buyuk Millat Majlisi sifatida hozirgi nomida 1920-yildan faoliyat ko‘rsata boshlagan.

1982-yil 7-noyabrda bo‘lib o‘tgan referendumda mamlakatning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiyaga muvofiq bir palatali etib belgilangan Turkiya Buyuk Millat Majlisiga 1983-yilda ko‘ppartiyaviylik asosida saylovlar bo‘lib o‘tdi. Konstitutsiyaga ko‘ra turk millati nomidan qonun chiqaruvchi hokimiyat Turkiya Buyuk Millat Majlisiga tegishli [1. B. 24–28]. Turkiya Buyuk Millat Majlisi 81 shahar, 85 saylov okrugidan bevosita saylanadigan 550 deputatdan iborat [13. B. 10]. Konstitutsiyaning 87-moddasiga muvofiq Turkiya Buyuk Millat Majlisining vazifalari va vakolatlari sifatida qonunlarni qabul qilish, o‘zgartirish va bekor qilish; Vazirlar Kengashi faoliyatini nazorat qilish; Vazirlar Kengashiga ayrim masalalar bo‘yicha qonun kuchiga ega bo‘lgan hukumat qarorlarini chiqarishga ruxsat berish; byudjet loyihasi va yakuniy hisob-kitoblar to‘g‘risidagi qonun loyihasini muhokama qilish va tasdiqlash; urush e’lon qilish va Qurolli Kuchlardan foydalanishga ruxsat berish bo‘yicha qarorlar qabul qilish; xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish; umumiy va qisman amnistiya e’lon qilish to‘g‘risida qaror qabul qilish kabilar belgilangan.

Konstitutsiyaning II.F bandi “Urush e’lon qilish va Qurolli Kuchlardan foydalanishga ruxsat berish” deb nomlanib, 92-moddada urush holatini qonuniy deb topilgan hollarda (Turkiya ishtirok etgan xalqaro shartnomalar yoki qoidalar xalqaro odob-axloq qoidalari, xalqaro huquq nuqtayi nazaridan rioya qilish talab qilinadigan hollar bundan mustasno) e’lon qilish vakolati, Turk Qurolli Kuchlarini xorijiy davlatlarga yuborish va Turkiyada xorijiy harbiy kuchlarni joylashtirishga ruxsat berish Turkiya Buyuk Millat Majlisi (TBMM)ga tegishli ekanligi mustahkamlab qo‘yilgan. Shuningdek, mazkur modda bilan agar mamlakat Turkiya Buyuk Millat Majlisining ta’til yoki tanaffusi paytida to‘satdan qurolli tajovuzga duchor bo‘lsa va Qurolli Kuchlardan foydalanish to‘g‘risida darhol qaror qabul qilish zaruriyati vujudga kelsa, respublika prezidenti Turk Qurolli Kuchlaridan foydalanishga qaror qilishi mumkinligi belgilangan [1. B. 30].

Bosh Assambleya TBMMning organi bo‘lib, qonunchilik, audit va boshqa faoliyat masalalari bo‘yicha yakuniy qarorlarni qabul qiladi. Qonun loyihalari qo‘mitalarda muhokama qilingandan so‘ng Bosh Assambleyada qabul qilinadi va shundan keyingina qonunga aylanadi. Bosh Assambleyada TBMM tomonidan ma’lumotlarni olish va nazorat qilishning boshqa turlari muhokama qilinadi. Bundan tashqari, Konstitutsiyaga ko‘ra, Bosh Assambleyada qonun va me’yoriy hujjatlarga muvofiq turli masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilish ovoz berish orqali o‘tkaziladi. TBMM Bosh Assambleyasi o‘z kun tartibiga muvofiq ishlaydi.

Qonunchilik tashabbusi deputatlarga va Vazirlar Kengashiga berilgan. Deputatlar qonunchilik takliflarini, Vazirlar Kengashi qonun loyihalarini TBMM spikeriga taqdim etadilar. Spiker qonun loyihasini tegishli qo‘mitalarga chiqaradi. Qo‘mitalardagi zarur o‘rganish va muhokamalardan so‘ng qonunchilik takliflari va qonun loyihalari Bosh Assambleya muhokama-

siga qo‘yiladi. Turkiya parlamentida mudofaa va xavfsizlikka oid qonunchilik takliflari va qonun loyihalari Milliy xavfsizlik va mudofaa qo‘mitasi tomonidan birinchi muhokamadan o‘tkaziladi. Milliy xavfsizlik va mudofaa qo‘mitasida 25 nafar a’zo (deputatlar) va 3 nafar qo‘mita xodimlari faoliyat ko‘rsatadi. Qo‘mita yig‘ilishlari 1oyda 1-2 marta o‘tkazilib, qo‘mita a’zolari tomonidan majlisga raislik qiluvchi saylanadi. Nizomga muvofiq Qo‘mita “Milliy xavfsizlik, mudofaa, fuqaro mudofaasi va harbiy xizmat to‘g‘risidagi qonun loyihasi va uning takliflarini” [14. B.76] ko‘rib chiqadi. Qo‘mita qonunchilik vakolatiga ega bo‘lib mudofaa va xavfsizlik masalalariga oid qonunchilik takliflarini kiritishda tashabbus qilishi mumkin, lekin harbiylar, ijro hokimiyati, byudjet ustidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazorat qilish vakolatiga ega emas.

Mamlakatning mudofaa siyosatini belgilash, qurol sotib olish to‘g‘risida qaror qabul qilish, Milliy Mudofaa vazirligi va Turkiya qurolli kuchlari byudjetlarini tayyorlash yoki ko‘rib chiqish vakolatiga ega emas. Ushbu vakolatlar TBMMning o‘ziga tegishli bo‘lib, qo‘mita mudofaa vazirini guvohlik berish uchun qo‘mita majlisiga yoki yalpi yig‘ilishga chaqirishi hamda vazir va harbiylardan tegishli hujjatlarni talab qilib olishi mumkin. Shuningdek, qo‘mita jamoatchi ekspertlarni, harbiylarni va harbiy sohaning fuqaroviy xizmatchilarini qo‘mitaning majlisiga guvohlik berish uchun chaqirish vakolatiga ega [15. B. 98]. Mudofaa masalalari bo‘yicha parlament so‘roviga asosan surishtiruv o‘tkazish yoki eshituv o‘tkazishga TBMM ham, qo‘mita ham vakolatli emas. Mudofaa masalalarida byudjet nazoratini amalga oshirish TBMMning o‘ziga berilgan mudofaaga oid barcha byudjet hujjatlarini olish; mudofaa byudjetiga mablag‘lar ajratish, byudjetni o‘zgartirish; mudofaa byudjetini rejali tekshirish; mudofaa byudjetini loyihalash; mudofaa byudjetini joriy tekshirish; mudofaaga taalluqli har qanday byudjet takliflarini tasdiqlash yoki rad etish huquqi kabi vakolatlarni nazarda tutadi:

Mudofaa byudjeti ustidan nazoratga oid taqdim etilgan vakolatlarga qaramay, TBMM ham, qo‘mita ham mudofaa ehtiyojlariga yo‘naltirilgan xarajatlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralasha olmaydi.

Tinchlikparvarlik missiyalari bilan bog‘liq qurolli kuchlarni chet ellarga yuborish bo‘yicha qaror chiqarish vakolati ham TBMMning o‘ziga tegishli.

Barcha demokratik davlatlarda bo‘lgani kabi Turkiyada ham mamlakatning mudofaa xarajatlarini nazorat qilishning asosiy vazifasi parlamentga yuklangan. Parlament birinchi navbatda hukumat tomonidan tayyorlangan mudofaa byudjetini tasdiqlaydi. Shuningdek, xavfsizlik bilan bog‘liq qonun loyihalari ular Bosh Assambleyaning kun tartibiga kiritilishidan oldin Milliy xavfsizlik va mudofaa qo‘mitasi orqali aniqroq muhokama qilinadi. Harbiy xarajatlarni o‘z ichiga olgan byudjet reja byudjet qo‘mitasida muhokama qilinadi. Biroq bu komissiya, davlat muassasa va tashkilotlaridan farqli ravishda, mudofaa byudjetini kamroq muhokama qiladi va turli istaklar bilan bir qatorda jiddiy tanqidlar ham qiladi. Masalan, 2008-yilgi byudjet muzokaralarida Milliy Mudofaa Vazirligining byudjeti muhokamasiz qabul qilingan. 2011-yilgi byudjetga ko‘ra, Milliy xavfsizlik va mudofaa qo‘mitasiga batafsil bo‘lmagan umumiy jadvallar taqdim etilgan, biroq deputatlar hech qanday qo‘shimcha ma’lumot yoki tafsilotlarni so‘ramagan. Bundan tushunish mumkinki, parlament mudofaa sektori ustidan xarajatlarni amalga oshirish vaqtida va undan keyingi tekshiruvni amalga oshirishi muhimdir. Bu borada birlamchi vazifa boshqa barcha demokratik mamlakatlardagidek parlamentda tuziladigan mudofaa komissiyasi zimmasiga tushadi.

Assambleya auditi Hisob palatasi tomonidan tegishli qonun hujjatlari doirasida amalga oshirilganligi sababli Parlamentdagi hukmron va muxolifat partiyalar deputatlarining deyarli hech biri qonun chiqaruvchi funksiyaga tanqidiy munosabatda emasligini qayd etish mumkin. Binobarin, ijroiya organi vakolatlaridan oldin Hisob palatasining vazifa va vakolatlari hamda uning tizimdagi o‘rni harbiy xarajatlarni nazorat qilish nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilishi kerak.

Parlamentning huquqiy va konstitutsiyaviy qoidalar doirasida shakllanishi unga armiya ustidan demokratik nazoratda ustunlik beradi. Asos sifatida Venetsiya Komissiyasi hisobotlari minimal qoidalarni tavsiya qiladi. Shunga ko‘ra, Parlament Qurolli Kuchlarni xorijiy davlatlarga jo‘natish bo‘yicha qarorlar qabul qilishda tezkorlik bilan faol ishtirok etishini ta’minlash kerak. Konstitutsiyaning 92-moddasi ushbu mezonga muvofiqligini baholash mumkin. Mudofaa byud-

jetini nazorat qilishning asosiy sharti TBMMning sohaga oid axborotga kirish vositalarini takomillashtirishdir. Maxfiylik QKning javobgarligiga to‘sqinlik qilmasligi kerak. Favqulodda vaziyat davrida qabul qilingan qarorlar va choralarni surishtirish va tekshirish bo‘yicha mustaqil sud hokimiyatining huquqi himoya qilinishi kerak. Odil sudlovni ta’minlaydigan sud tizimi yaratilishi kerak. Yuqori darajali qo‘mondonlarni rag‘batlantirish va tayinlashda shaffoflikni oshirish uchun TBMM qaror qabul qilish jarayoniga jalb qilinishi yoki maslahatlashuvi zarur. QK xodimlarining siyosiy betarafligi saqlanishi lozim. Shu bilan birga, qurolli kuchlar a’zolariga xolislik yo‘lida inson huquqlariga qo‘yilgan cheklashlar belgilangan vazifa va maqsadlarga mutanosib bo‘lishi kerak. Xolisona demokratik fuqarolik nazorati parlament nazorati bo‘lib, bu QKga o‘zining professionalligidan maksimal darajada foydalanish, mamlakat mudofaasi va xavfsizligiga e’tibor qaratish imkonini beradi.

Subyektiv demokratik fuqarolik nazorati armiyani hokimiyatning avtokratik nazorati ostiga qo‘yadi, askarni siyosiylashtirish va uning professional qobiliyatlaridan foydalanish imkoniyatini cheklaydi. Shuning uchun Hukumat barcha vakolatlarni monopoliyaga olish o‘rniga, armiyani boshqarishda demokratik fuqarolik nazorati va nazorat mexanizmlarida milliy konsensus tamoyillariga rioya qilgan holda parlament ta’sirini kuchaytirish choralarini ko‘rishi kerak.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib aytish mumkinki, Turkiyada parlamentning armiyani nazorat qilish vakolatlari demokratik davlatlarnikidan ancha orqada. Na Bosh Assambleya, na Milliy xavfsizlik va mudofaa qo‘mitasi xavfsizlik siyosatini rejalashtirish yoki mudofaa byudjetini belgilashda samarali pozitsiyaga ega emas. Mamlakatning mudofaa sohasidagi ustuvor yo‘nalishlari, xususan, zarur qurollarni xarid qilish va qurol-yarog‘ bo‘yicha shartnomalar tuzish kabi masalalar, agar qonunchilik bilan tartibga solishga muhtoj bo‘lmasa, amalda parlament kun tartibiga kiritilmaydi. Parlament a’zolarining katta qismi mudofaa bilan bog‘liq masalalarda tashabbus ko‘rsatishdan va shu nuqtayi nazardan xarajatlarni nazorat qilishdan o‘zini tiyadi. Shu sababli qog‘ozda juda cheklangan ko‘rinishga ega bo‘lgan Assambleyaning huquq va vakolatlari amalda o‘z ahamiyatini yo‘qotadi.

Turkiya jamoatchiligida “harbiy-jismoniy qadriyatlar inson va jamiyat sifatida bizning ustun xususiyatimizdir” degan g‘oya mavjud ekan, harbiylarning barcha muammolarni xavfsizlik muammosi sifatida qabul qilishiga to‘sqinlik qila olmaydi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Turkiyada armiyani nazorat qilish yoki jamiyatning vasiyligidan chiqish degani mentalitetdagi radikal inqilob natijasi bo‘lishi mumkin. Bu esa turk jamiyatiniщиg armiya haqidagi tasavvurini zamonaviy qadriyatlar asosida shakllantirishni taqozo etadi. Ushbu vazifani o‘z siyosiy g‘oyalari va maqsadlariga ega partiyalargina emas, balki aholi fikrini shakllantirishda ta’sir kuchiga ega ziyoli qatlam, keng jamoatchilik amalga oshirishi kerak. Demak, respublika armiyasini nazorat qila oladigan turk jamiyati demokratik boshqaruvni shakllantirishning real imkoniyatlari va mexanizmlariga ega, deyish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Turkiye Cumhuriyeti Anayayasasi. – İstanbul, 1982. – 74 s. [Online]. URL: https://www.mevzuat.gov.tr/MevzuatMetin/1.5.2709.pdf. (Murojaat etilgan sana: 10 .05.2023)

2. 2023 Military Strength Ranking. [Online]. URL: https://www.globalfirepower.com/countries-listing.php. (Date of Access: 15.05.2023)

3. . [Электронный ресурс]. URL: www.globalfirepower.com. (Дата обращения: 03 .04.2023)

4. The Military Balance 2022. P. 155. [Online]. URL: https://www.iiss.org/publications/the-military-balance. (Date of Access: 24.05.2023)

5. Военные расходы Турции 2023. [Электронный ресурс]. URL: https://take-profit.org/statistics/military-expenditure/turkey/. (Дата обращения: 02 .04.2023)

6. President of Turkey Urges Resistance as Military Attempts Coup (15 July 2016). [Online]. URL: https://en.wikipedia.org/wiki/2016_Turkish_coup_attempt. (Date of Access:12 .05.2023)

7. *Çandar, Cengiz.* “Post-modern darbe…”, *Sabah* (27 Haziran 1997). [Online]. URL: (Мурожаат этилган сана: 10.05. 2023)

8. *Hannah Lucinda Smith*. Erdogan gives Turkish military immunity (15 July 2016). [Online]. URL: https://

www.thetimes.co.uk/article/turkish-military-given-immunity-as-erdogan-seeks-allies-3fcpwc2jk. (Date of Access: 18 .05.2023)

9. *Erkin, Aytunç* (1 Mart 2019). “30 bin kripto FETÖ’cü TSK içinde hala aktif”. *Sözcü. 5 Haziran 2020 tarihinde kaynağından* arşivlendi. Erişim tarihi: 5 Haziran 2020. [Интернет манба]. URL: https://www.google.com/search?q=9.+ Erkin%2C+Aytun%C3%A7. (Мурожаат этилган сана: 10.04.2023)

10. Анкара оценила потери турецкой экономики от попытки госпереворота в 100 млрд долларов. [Электронный ресурс]. URL: https://vz.ru/news/2016/8/2/824710.html (Дата обращения: 10 .05.2023)

11. Toplumcu Düşünce Enstitüsü. Tartışma Notu. TN – Savunma/16-005, 23.08.2016, 68-бет. Hazırlayan: Ali ER, Tuğgeneral (E). GÜVENLİK GÜÇLERİNİN DEMOKRATİK DENETİMİ: TSK NASIL YAPILANDIRILMALI? [Интернет манба]. URL: https://www.toplumcudusunceenstitusu.org/guvenlik-guclerinin-demokratik-denetimi-tsk-nasil-yapilandirilmali/ (Мурожаат этилган сана: 30 .05.2023)

12. Turkiye Siyasetinde Ordunun Rolu: Asker-Sivil iligkileri,Guvenlik Sektoru ve Sivil Denetim. Proje SorumlusuDr. Ulrike Dufner, Semahat Sevim. – Istanbul: Agustos, 2010. – 141 c.

13. *НЕЗИРОГЛУ Др.И.* и др. Великое Национальное Собрание Турции. – Анкара:Типография ВНСТ, 2013. – 128 с.

14. *Doç. Dr. Hamit Emrah BERİŞ.*Dünyada ve Türkiye’de Savunma Harcamalarının Demokratik Denetimi. Institute of Strategik Thinking. SDE ANALİZ Mart 2012. [Online]. URL: https://www.academia.edu/31459662/TURKIYEDE _SAVUN MA_HARCAMALARININ _DEMOKRATIK_ DENETIMI. (Мурожаат этилган сана: 10.04.2023)

15. *Борн Г., Флури Ф., Ланн Саймон* и др. Контоль и управление: актуальность парламентского контроля над сектором безопастности и его реформированием. Сборник статей Издание второе, исправленное и дополненное. – Брюссель Женева-Киев, 2011. – 172 с.

THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF PARLIAMENTARY CONTROL IN THE FIELD OF DEFENSE AND SECURITY: THE EXAMPLE OF TURKEY

To‘lqin P. Karimov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 5(73). 53-60.

[1]Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Republic of Uzbekistan, Tashkent, 100035, str. Bunyodkor, 1 (Uzbekistan). E-mail: parliament.gov.uz.

Keywords: civil society, Constitution, public relations, historical character, armed forces, security, coup d’etat, parliament, control.

The article is about the history of the formation of parliamentary control in the field of defense and security using the example of the Republic of Turkey. Civil-military relations in society and issues of creating civil and democratic mechanisms of military control by the state are analyzed.

The high level of political and social influence of the armed forces in society and the resulting imbalances are considered one of the most important and complex issues in Turkish history. Therefore, issues of civil-military relations and the creation of civilian and democratic mechanisms of control over a number of security institutions have always been on the agenda of the Turkish parliament. The Turkish armed forces organized three coups d’etat in the country – in 1960, 1971 and 1980. The military historically considered itself the guarantor of Turkish statehood, built on the teachings of Mustafa Kemal Ataturk. The last attempt at a military coup in the modern history of Turkey – the Turkish military putsch – occurred in 2016. The lack of parliamentary control of the military in a multi-party parliament has been cited as one of the main factors behind the attempted military coup in Turkey.

In democracies, command and control begins with the exercise of political will in decision-making and military planning. In the decision-making process, the Prime Minister and the Council of Ministers must be given full powers, the recommendations and suggestions of the Armed Forces must be included in the process, and parliament must be given powers of audit and control. Defense and security objectives must be integrated into government programs to assess strategic intelligence, changes in the international security environment, and compliance with commitments. The Armed Forces must follow the principles of annual and medium-term strategic planning.

In a democratic society, military personnel should not have the right to make public statements about the policies of the country and government. It is not the army itself that should decide defense policy and the army. To do this, it is necessary to gradually put the army under civilian control, express politics as a civilian sphere, clear the political space of military symbols, and change the attitude of society towards the military sphere.

The above circumstances require the formation in Turkish society of an idea of the army based on modern values. This task should be carried out not only by parties that have their own political ideas and goals, but also by the intelligentsia and the general public, who have the opportunity to influence the opinion of the population. Therefore, we can say that Turkish society, capable of controlling the army of the republic, has real opportunities and mechanisms for the formation of democratic governance.

References:

1. (1982) Turkiye Cumhuriyeti Anayayasasi. İstanbul. [Online]. URL: https://www.mevzuat.gov.tr/MevzuatMetin/1.5.2709.pdf. (Date of Access: 10 .05.2023)

2. 2023 Military Strength Ranking. [Online]. URL: . (Date of Access: 15.05.2023)

3. (2021) Voennaya moshch' gosudarstv-chlenov NATO [Military power of NATO member states (2021)]. [Online]. URL: www.globalfirepower.com. (Date of Access: 03 .04.2023)

4. The Military Balance 2022. P. 155. [Online]. URL: https://www.iiss.org/publications/the-military-balance. (Date of Access: 24.04.2023)

5. Voennye raskhody Turcii 2023. [Turkey's military spending 2023]. [Online]. URL: https://take-profit.org/statistics/military-expenditure/turkey/. (Date of Access: 02.04.2023)

6. President of Turkey Urges Resistance as Military Attempts Coup (15 July 2016). [Online]. URL: https://en.wikipedia.org/wiki/2016_Turkish_coup_attempt. (Date of Access: 12.05.2023)

7. *Çandar, Cengiz.* "Post-modern darbe…", *Sabah* (27 Haziran 1997). [Online]. URL: http://arsiv.sabah.com.tr/1997/06/28/y12.html (Date of Access: 10.05.2023)

8. Hannah,L.S. (2016) Erdogan gives Turkish military immunity (15 July 2016). [Online]. URL: https://www.thetimes.co.uk/article/turkish-military-given-immunity-as-erdogan-seeks-allies-3fcpwc2jk. (Date of Access: 18 .05.2023)

9. Erkin, Aytunç (1 Mart 2019). *30 bin kripto FETÖ'cü TSK içinde hala aktif.* [30 thousand crypto FETO members are still active within the Turkish Armed Forces]. Sözcü. 5 Haziran 2020 tarihinde kaynağından arşivlendi. Erişim tarihi: 5 (Archived from the original on June 2020. Access date: 5) Haziran 2020. URL: https://www.google.com/search?q=9.+Erkin%2C+Aytun%C3%A7. (Date of Access: 10 .04.2023)

10. Ankara ocenila poteri tureckoj ekonomiki ot popytki gosperevorota v 100 mlrd dollarov [Ankara estimated the losses of the Turkish economy from the coup attempt at $100 billion]. [Online]. URL: https://vz.ru/news/2016/8/2/824710.html (Date of Access: 10 .05.2023)

11. Toplumcu Düşünce Enstitüsü. Tartışma Notu. TN – Savunma/16-005, 23.08.2016 , 68-бет. Hazırlayan: Ali ER, Tuğgeneral (E) . GÜVENLİK GÜÇLERİNİN DEMOKRATİK DENETİMİ: TSK NASIL YAPILANDIRILMALI? [DEMOCRATIC CONTROL OF SECURITY FORCES: HOW SHOULD THE TSK BE STRUCTURED?]. [Online]. URL: (Date of Access: 30.05.2023)

12. (2010) Turkiye Siyasetinde Ordunun Rolu: Asker-Sivil iligkileri,Guvenlik Sektoru ve Sivil Denetim. [The Role of the Military in Turkish Politics: Military-Civilian Relations, Security Sector and Civilian Control]. Proje SorumlusuDr. Ulrike Dufner, Semahat Sevim. Istanbul.

13. Neziroglu Dr. I.(et.al.) (2013) Velikoe Nacional'noe Sobranie Turcii [Grand National Assembly of Turkey]. Ankara:Tipografiya VNST.

14. Doç. Dr. Hamit Emrah BERİŞ. (2012) Dünyada ve Türkiye'de Savunma Harcamalarının Demokratik Denetimi [Democratic Control of Defense Expenditures in the World and in Turkey]. Institute of Strategik Thinking. SDE ANALİZ Mart. [Online]. URL: https://www.academia.edu/31459662/TURKIYEDE_SAVUNMA HARCAMALARININ_DEMOKRATIK_DENETIMI (Date of Access: 10.04.2023)

15. Born G., Fluri F., Lann S. (et.al.) (2011) Kontol' i upravlenie: aktual'nost' parlamentskogo kontrolya nad sektorom bezopastnosti i ego reformirovaniem [Control and management: the relevance of parliamentary control over the security sector and its reform]. Sbornik statej Izdanie vtoroe, ispravlennoe i dopolnennoe [Collection of articles Second edition, corrected and expanded]. Bryussel' Zheneva-Kiev.

Muallif haqida ma'lumot:

KARIMOV To'lqin Payziyevich – siyosiy fanlar nomzodi. O'zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash Oliy maktabi mustaqil izlanuvchisi.